



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ	
УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ	
XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI	
OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI	
TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING	
ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT	
TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE	
IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY	
ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***THE ROLE OF NOMINATION AND THE REPRESENTATION OF COLORS
IN THE LINGUISTIC WORLDVIEW****Khoshimova Oydina Shuxrat qizi**

Based doctoral student

Namangan State University

E-mail: oydinakhoshimova@gmail.com**Abstract.** This article examines the importance of nomination and color-expressing vocabulary in shaping the conceptual worldview in Uzbek and English languages. Colors are analyzed as linguistic units and as significant nominative tools reflecting national and cultural meanings.**Keywords:** primary nomination, secondary nomination, color expressions, linguistic semantics, conceptual worldview, linguoculturology, pragmatic analysis, cultural values, language.**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI
VA RANGLAR IFODASI****Xoshimova Oydina Shuxrat qizi,**

Namangan davlat universiteti

tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va ingliz tillarida rang ifodalovchi leksik birliklarning konseptual dunyo manzarasini shakllantirishdagi ahamiyati hamda nominatsiyaning o'rni tahlil qilingan. Ranglar nafaqat lisoniy birlik, balki milliy va madaniy ma'nolarni ifodalovchi muhim nominativ vosita sifatida qaraladi.**Kalit so'zlar:** birlamchi nominatsiya, ikkilamchi nominatsiya, rang ifodalar, lingvistik semantika, konseptual manzara, lingvokulturologiya, pragmatik tahlil, madaniy qadriyatlar, til.DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N53>**Kirish.** Dunyo va o'zbek tilshunosligida tilning semantikasi, ma'lum tilda olamning lisoniy manzarasini shakllantirish vositalaridan biri sifatida rangni ifodalovchi leksikaning nominativ ahamiyati borasida muayyan tadqiqotlar olib borilgan[1;B.5]. Shunga qaramay, ranglarning turli til va madaniyatlarda nomlanishi, shuningdek, ularning etnomadaniyati, olamning lisoniy manzarasi, mualliflarning individual uslubdagi rang nominatsiyasining muammolari hozirgi vaqtga qadar yetarlicha tadqiq etilmagan. Shuning uchun ushbu kichik tadqiqotimiz o'zbek va ingliz lingvomadaniyatida rang ifodalovchi leksikaning konseptual dunyo manzarasini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Bu orqali madaniy qadriyatlar va ramziy ma'nolar tilda qanday aks etganini chuqurroq tahlil qilamiz.**Metodlar.** Ilmiy mavzuni yoritishda - o'zbek va ingliz tillarida rang ifodalovchi leksemalarning nominatsiya jarayonidagi ishtirokini ochib berishda qiyosiy-tarixiy hamda tasniflash metodlaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Ferdinand de Sossyur lingvistikada sistem-struktur yondashuvga asos soldi va tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki insonning olamni qanday tasavvur qilishini aks ettiruvchi tizim sifatida ko'radi. U tilshunoslikning asosiy diqqat markazi nutq ekanini ta'kidlagan edi: "Insonning nutqiy faoliyatiga oid barcha holatlar – ilk ibtidoiy xalqlardan tortib madaniy millatlarga qadar, ma'lum bir tilning gullab-yashnagan davridan to arxaik davrlarga va unga xos tanazzul davrlarigacha – "faqat lingvistikaning materiali" hisoblanadi[2; B.44]. Demak, nutq faoliyatining o'ziga xos birligi sifatida rivojlanishi biz uchun nafaqat nutqning preverbal bo'lgan bosqichlarini, ya'ni nutq g'oyasini yaratish jarayonini, balki nutqning rivojlanishini adekvat tarzda tavsiflash uchun ham muhimdir[3; B.18].

Nutqiy faoliyat hodisalarida tilning o'rni juda muhim hisoblanadi hamda u orqali tilning faoliyatini va ma'nosini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Har bir tilda xalqning ruhi, milliy madaniyati, o'ziga xos dunyoni ko'rish, idrok etish tarzi namoyon bo'lish bilan birga, tillar o'rtasida obraz yaratishdagi shunday umumiyl jihatlar borki, bular umuminsoniy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga chiqadi[4; 18]. I. Gerderning ta'kidlashicha: "Inson faoliyatidagi to'rt asosiy hodisa: til, madaniyat, jamiyat va milliy ruh bir-biri bilan bog'langan. Til o'zining kelib chiqishiga ko'ra madaniyat bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat bilan birga takomillashadi. Tilning madaniyat bilan organik bog'liqligi uni milliy ruhning muhim tarkibiy qismiga aylantiradi[5]" – deb e'tirof etadi.

A.Nurmonovning fikricha, "... til va madaniyat o'zaro bog'liq va ayni paytda farqli hodisalardir. Til va madaniyat munosabatida tilning roli katta. Har bir xalqning o'ziga xos etnomadaniyati uning tili orqali ifodalanadi, lekin obyektiv borliqd ana shu etnomadaniyat mavjudligi uchun u tilda o'z ifodasini topadi[4; B.18]." Mazkur fikrdan kelib chiqadiki, lisoniy va madaniyaloqalarda obyektiv borliq, ong va tilning uyg'un munosabati namoyon bo'ladi.

Tilshunoslikda nominatsiya masalalari an'anaviy mavzulardan biri bo'lib, ko'plab tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Nominatsiya haqiqiylikning turli qismlariga nom berish, ularni mustahkamlash va taqsimlash jarayoni sifatida qaraladi. Bu jarayonda predmet yoki shaxsni nomlash orqali mazmunli til birliklari shakllanadi. Ushbu masalalar B.A. Serebrennikov, A.A. Tarxova, V.N. Fedorsova, A.A. Ufimseva, V.N. Teliya, shuningdek, V.G. Gak, Y.S. Kubryakova, A.M. Bazarbayeva kabi olimlarning asarlarida keng yoritilgan.

Tilshunos A. M. Bazarbayeva shu xususida ko'plab tadqiqtolar o'tkazib, til jamiyat tajribasini umumlashtirish jarayonida uni "saqlovchi", "yaratuvchi" va "innovatorlik" vazifalarini bajarishini aytib o'tdi. U nominatsiya to'g'risida shunday deya ta'kidlagan: "Til makonida voqelikning aks etishi atrof olamdag'i obyektlarga nom berish, ya'ni nomlash yoki nominatsiya orqali amalga oshiriladi. Shubhasiz, nominatsiya jarayonining asosida obyektni tavsiflovchi bir yoki bir nechta belgilar (tashqi, ichki, dolzARB, differensial va shu kabi belgilar) tanlovi yotadi[6; B.47]."

Biz quyida o'zbek va ingliz tillarida rang ifodalovchi leksemalarning nominatsiya jarayonidagi ahamiyatini ochib berishda ushbu tillardagi nominativ birliklarni qiyoslashga asosiy diqqatni qaratganmiz.

Tahlillar va natijalar. Nominatsiya (lotincha. nominatio – atash, nom qo'yish) – tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklarni (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish[7; B.70], ya'ni "nominatsiya" tilning asl maqsadini amalga oshiradi. Nominatsiya tilshunoslikda tilga bog'liq bo'lgan elementlar (so'z, ibora) yoki boshqa til birliklari yordamida obyekt, hodisa,

tushuncha va harakatlarni nomlash jarayoni sifatida o'rganiladi. Bu jarayon tilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, dunyoni idrok etish va unga ma'lum bir shaklda ma'no berishda asosiy rol o'ynaydi.

Nominatsiya jarayonida dunyoning barcha xalqlarida rang ifodalovchi til birliklari muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ranglarni bildiruvchi so'zlar bilan bog'liq nominatsiya jarayoni milliy madaniyat, tabiat va ijtimoiy hayotga xos bo'lgan jihatlarni aks ettiradi. Shunday ekan ranglarning tildagi ifodasi faqatgina atamalar bilan cheklanmaydi, balki ular ko'pincha idiomatik ifodalar va metaforik ma'nolarda ham namoyon bo'ladi, ya'ni "nominatsiya" tilning asl maqsadini amalga oshiradi. Ranglarning lingvistik nomlanishi turli tillarda va madaniyatlarda o'zgaradi.

Olamning lingvorangli manzarasi, ya'ni ranglarning tildagi ifodasi, nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki madaniyat va psixologiya sohalarida ham keng muhokama qilinadi. Ranglar ko'pincha til va madaniyatning ajralmas qismi sifatida, ularning xalqning dunyoqarashi va qadriyatlari bilan bog'liq ravishda tadqiq qilinadi. Nominal ifodalar, ya'ni ranglar nomlanishi millatning nominatsion qadriyatlari, jarayonlari, odamlarning atrof olamini idrok etish va tushunish usullarini yoritadi. Ushbu tadqiqotda nominatsiyaning o'rni va ranglar ifodasining lingvistik xususiyatlari o'rganiladi.

Ranglar tilda ko'plab madaniy, sotsial va psixologik ma'nolarni o'z ichiga oladi. Ularning nominal ifodalari odamlarning dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan, "qizil" rang ba'zi xalqlarda kuch va jasoratni, boshqalarda esa xatar va ogohlikni anglatadi. Har bir rang o'zining lingvistik ifodalari orqali ma'lum bir psixologik yoki madaniy holatni aks ettiradi. Tilda ranglarning nomlari, shuningdek, boshqa narsalarni nomlashda ranglardan foydalanish an'anaviy ravishda shaxsий tajriba va madaniyatga asoslanadi.

Ranglar spektrini nomlash muammosi ko'plab tillar uchun dolzarb hisoblanadi. E.A. Nayde fikriga ko'ra, ko'z bilan ajratib bo'ladigan rang tuslari taxminan o'n millionga yetadi. Shu bilan birga, ayrim tillarda ranglarni nomlashga oid terminlar soni faqat bir necha mingni tashkil etadi (masalan, ingliz tilida bu raqam taxminan uch ming). Biroq oddiy odamlar odatda o'n bir asosiy rang nomidan foydalanadi[8; B.50].

Ranglar nomi oddiy bir atama bo'lib qolmaydi; ular vaqt o'tishi bilan ko'plab ma'no qatlamlarini o'zida jamlaydi. Nominatsiya jarayoni ranglarning tilshunoslikda qanday qilib yangi ma'nolarni qabul qilishiga va eski an'analarni saqlab qolishga yordam beradi. Misol uchun, "ko'k" rangi so'zining lingvistik tarixi uning qadimiy mifologik va diniy ma'nolariga bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqa tomonidan, "qora" rangi ko'pincha salbiy, qo'rquinchli va noxush his-tuyg'ularni ifodalaydi.

Prof. A.Nurmonovning fikriga ko'ra, "... nominatsiyaga asos bo'lgan obraz markazini idrok qilishda turli tipdagi tillarda o'ziga xos umumiyligi jihatlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Bu ham lingvistik nisbiylik nazariyasining olamni idrok etishda tilning rolini ustuvor qilish ekanligi haqidagi xulosasi biryoqlama ekanligidan dalolat beradi[4; B.15]." Shunday qilib, til – jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lib, ranglar til tizimi orqali ifodalanadi.

Har bir rangning o'ziga xos nomi va ma'nosini bo'lib, bu ranglar madaniy kontekstda turlicha interpretatsiya qilinadi. Masalan, ingliz tilida "blue" rangini ifodalovchi so'z, o'zbek tilida "ko'k" yoki "moviy" sifatida tarjima qilinadi. Bu jarayonlar til va nutqning bir qismini tashkil etadi, ranglar orqali til, nutq va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik yuzaga keladi. Ranglarning nomlanishi va ularning tildagi roli odamlarning dunyoqarashi va tilning ijtimoiy

madaniy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nominatsiya jarayoni tilning asosiy funksiyalaridan biri sifatida kognitiv va kommunikativ jarayonlarni tashkil etadi.

Nominatsiya tushunchasini tahlil qilishda tadqiqotchilar tomonidan turli xil yondashuvlar taklif etilgan. Shu jumladan, V.V. Vizaulina nominativ maydonni quyidagicha ta'riflaydi: "nominativ maydon – bu haqiqatning muayyan fragmentini ajratish va nomlash, shuningdek, u haqda tegishli konseptual tasavvurni shakllantirishga xizmat qiluvchi bir so'zli va ko'p so'zli nominativ birlıklarning yig'indisi[9]." Mazkur ta'rif nominatsiya jarayonining lingistik birlıklar orqali konseptual dunyo manzarasini shakllantirishdagi o'rnini aniq ifodalaydi.

V.N.Teliyaning fikricha: "Birlamchi nominatsiya – real kommunikatsiyaga kiritilgan til belgilarini yangi kommunikativ vazifalar bilan ta'minlaydi. Ikkilamchi nominatsiya – bu "semiologik jarayon bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri tilning kommunikativ sohasida dominant hisoblanadi[10]."

Quyida ushbu nominatsiya turlari ranglar misolida keltiriladi:

1. Birlamchi nominatsiya (asosiy nomlash) – bu ranglarning o'zini nomlash jarayonidir. Nominatsiya tabiatda ranglarning to'g'ridan-to'g'ri ifodasini beradi. *Moviy, yashil, oq, qora, qizil* – asosiy rang nomlari.
2. Ikkilamchi nominatsiya (ma'no kengayishi) – bu mavjud nomning boshqa nomga ko'chishi.

Qora tun – umidsizlik yoki qo'rquv belgisi.

Oq yuzli – toza qalbli, pok niyatli odam (metafora).

Qizil bayroq – sho'ro davri (inqilob) ramzi (metonimiya).

Moviy osmon – tinchlik ramzi.

Ingliz tilida: *Red carpet* – hurmat va yuqori daraja.

Green light – ruxsat yoki imkoniyat.

White flag – taslim bo'lish yoki tinchlik.

White lie – (oq yolg'on) atamasi zararsiz yolg'ONNI anglatadi.

3. Simvolik nominatsiya – bu ranglar ramz sifatida ishlatalgan holatlardir. O'zbekiston bayrog'i ranglari: oq – poklik va tinchlik; yashil – tabiat va yangilanish; moviy – osmon va suvning timsoli; qizil – hayot energiyasi va tiriklik.

4. Terminologik nominatsiya – bu ilmiy atamalar orqali ranglarning maxsus ma'nosini belgilash.

Xlorofill – yashil o'simliklarda rang beruvchi pigment.

Spektr – ranglarning fizik tasnifi.

Ultrabinafsha – ko'z bilan ko'rinxaydigan spektrning qismi.

5. Metafora asosida nominatsiya: *qora tilli* – yomon gapiruvchi; *oq yo'l* – yaxshi tilak, omad; *yashil bog'* – obodlik ramzi; *qizil gul yuz* – go'zallikni ifodalash; *oltin kuz* – kuz faslining boy ranglar bilan bog'lanishi; *qora yurak* – shavqatsizlik; *oq ko'ngil* – ochiqko'ngil odam; *qora kecha* – qayg'u va yolg'izlik; *qora kunlar* – og'ir, omadsiz kunlar.

6. Milliy va madaniy nominatsiya. E'tiborli jihat shundaki, xalqlar o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, ayrim ranglarni salbiy / ijobjiy tarzda qabul qiladi. O'zbek xalqida qizil rang qon, urush, salbiy hissiyot ramzi bo'lsa, turklarda – ozodlik, ispanlarda – ijobjiy hissiyot ramzidir.

Shu kabi *qora kiyim* – o'zbeklarda motam belgisi; *moviy rang* – kuch, qudrat, ulug'vor osmon belgisi; *yashil rang* – Navro'z bayramining asosiy belgisi; *moviy gumbazlar* –

Samarqanddagi tarixiy obidalarga nisbatan qo'llaniladi; *oq libos* – o'zbek to'y marosimlarida kelinlik libosini ifodalash.

7. Ranglar bilan bog'liq o'zbek maqollari: "*Qora yer non beradi*." – yerning serhosilligi va sabr haqida. "*Oq yuvib, oq tarab*." – poklik va g'amxo'rlikni ifodalaydi. "*Qizil tovuqning tuxumi qizil bo'ladi*." – insонning o'ziga xos tug'ma fazilatlarini ko'rsatadi.

Rang bildiruvchi so'zlar bilan bog'liq **onomastik nominatsiya** – bu ranglarning geografik joylar, shaxslar, hayvonlar, va boshqa nomlarda qo'llanilishi jarayonini bildiradi. Bu usul milliy, madaniy va tarixiy o'ziga xosliklarni aks ettiradi.

➤ **Shaxs nomlari (antroponimlar)** – bu ranglar orqali shaxs ismlarining shakllanishi.

Masalan: *Qorabotir* – ertaklarda bu personaj salbiy qahramon, bundan tashqari "oraga rahna soluvchi", "o'rinsiz oraga tushuvchi" singari okkazional ma'nolarni ham angllatadi.

Qorayev – qora rang orqali kelib chiqqan familiya.

Oqgul – oq va gul so'zлari uyg'unlashgan holda, poklik ramzi sifatida.

Qiziloy – oy kabi go'zal va qizil tusda tasvirlangan.

Rang masalasida yana bir muhim jihat – bu tarkibida faqat asosiy rang nomlari emas, balki rang ohangini belgilovchi qo'shimcha elementlarni ham o'z ichiga olishidir. Rang nomlanishlarida bunday elementlar leksemaning mazmuniy maydonini yanada boyitadi va uning mazmunini aniqroq ifoda etishga yordam beradi. "Tillar dastlab o'z so'zlovchilariga ma'lum bir dunyo manzarasini belgilab beradi, har bir til esa o'ziga xos manzarani shakllantiradi[11]." Shu jumladan, lingistik jihatdan bunday nominatsiya turlari *etnonimlar* (millat yoki xalq nomlari) yoki *toponimlar* (geografik joy nomlari) madaniy hamda lisoniy olam manzarasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu esa rang tasvirini nafaqat ko'rinish nuqtayi nazaridan, balki tarixiy, madaniy va milliy jihatdan ham boyitadi. Shu sababli, bunday nominatsiyalar rangning lingvokulturologik qiymatini ochib beruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Geografik nomlar (toponimlar) – bu ranglar orqali geografik obyektlarga berilgan nomlar hisoblanib, ular xalq taffakuridagi tarix hamda voqeа-hodisalarни lisoniy olamga namoyon qilib beradigan boylikdir. V.N. Fedorsova quyidagi ta'rifni beradi: "Toponimlar va etnonimlar – madaniy ma'lumotlarning muhim manbalari, tarix guvohlari va ma'lumotlarni saqlovchilaridir[13; B.174]." Toponimlar va etnonimlarni o'rgangan tadqiqotchilarining bir qator ishlarida ularning lingvokulturologik ahamiyati yoritilgan (E.L. Berezovich, O.A. Leonovich, V.A. Nikonorov, E.M. Murzayev, V.N. Fedorsova, N.V. Podolskaya, A.V. Superanskaya).

E.M. Murzayev topominlar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Ular tasodifan paydo bo'limgan, balki ma'lum belgilarga asoslangan holda nominatsiyaning ongli jarayoni natijasida vujudga kelgan bo'lib, tarixiy yoki geografik haqiqatlarni aks ettiradi va shu sababli muhim tarixiy-madaniy ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi[12;]". Jumladan:

Qoraqalpog'iston – qora rangli bosh kiyimi bilan motivlangan bo'lib, "Qora qalpoq xalqi yashaydigan yer" yoki "Qoraqalpoqlar davlati" degan ma'noni bildiradi. Bu nom xalqning tarixiy-madaniy xususiyatlari va yashash hududining geografik chegaralari bilan bog'liq.

Oqtepa – tepalikning oq tuproq yoki kulrang tuproq bilan bog'liq hududi.

Qizilqum – qumning qizil tusli ko'rinishini bildiradi va cho'l hududining rang tasviri geografik nomga aylangan.

Qizilravot – etimologik jihatdan "qizil" va "ravot" qismlaridan iborat."Qizil" – rangni anglatib, ko'pincha qizg'ish yoki och qizil tuproqning, yerdagi minerallarning yoki hududning tabiiy xususiyatlariga ishora qiladi. "Ravot" esa eski turkiycha so'z bo'lib, odatda "yashash joyi", "qo'nalg'a" yoki "karvonsaroy" ma'nolarini anglatadi. Bu hududning qadimda savdo yo'llari yoki dam olish maskanlari sifatida xizmat qilganini ko'rsatishi mumkin.

Sariqamish – sariq rangli kamish o'simliklarining nomi, shuningdek, O'zbekistonning ayrim hududlaridagi joy nomi.

Oqtog' – tog' nomi, o'sha joydagi aniq tog'ni ifodalaydi va ko'pincha oq rangdagi yoki qorli tog'larga nisbatan ishlatiladi.

Qoratog' – tog'ning nomi, qorong'u yoki o'zgacha tabiatni aks ettiruvchi joy.

Qorasuv – bu nom ko'pincha suvning qora va to'q rangdagi yoki suvi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan joylar uchun ishlatiladi. O'zbekistonning ayrim hududlarida shunday joy nomlari mavjud.

Etnonimlar ranglar bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha etnik guruhlar yoki xalqlarni tarixiy, madaniy yoki geografik xususiyatlariga qarab ifodalash uchun ishlatilib, ma'lum bir xalqning jismoniy xususiyatlari hamda ramziy ma'nolarini aks ettirishi mumkin.

Rang ifodalovchi birliklar bilan bog'liq bo'lgan etnonimlardan ayrim misollar:

Qizillar (Red Indians) — Shimoliy Amerikaning mahalliy xalqlari uchun tarixiy atama, lekin bu atama hozirgi kunda eski va haqoratli hisoblanadi.

Qoralar, qoratanlilar (Black people) — Afrika yoki afro-amerikaliklarni ifodalovchi etnonim, ko'pincha irqiy identifikasiya kontekstida ishlatiladi.

Oqtanlilar (White people) — “oq tanli odamlar yoki “yevropaliklar” yoki yevropa avlodlaridan kelib chiqishga ega bo'lgan kishilarni ifodalovchi etnonim.

Sariqlar (Yellow people) — Sharqiy Osiyo xalqlarini ifodalashda ishlatilgan tarixiy atama, ammo bu atama ham salbiy ma'nolarga ega va zamonaviy tilda qo'llanilishi yomon ko'rildi.

Bu kabi etnonimlar ko'pincha madaniy va ijtimoiy munozaralar markazida bo'ladi, chunki ular stereotiplar va oldindan belgilangan fikrlarni o'z ichiga olishi mumkin. Hozirgi kunda ranglar bilan bog'liq etnonimlar odatda yanada aniq va neytral atamalar bilan almashtiriladi, diskriminatsiyani oldini olish uchun.

Shunday qilib, qoidaga ko'ra, har qanday nominativ birlik yangi semantik funktsiyada uning avvalgi ma'nosi bilan ichki bog'lanishga ega bo'lishi kerak. Biroq, rangni ifodalovchi va toponimlar hamda etnonimlar asosida paydo bo'lgan nominativ birliklarda bu bog'lanishni ko'rish qiyin, chunki bunday birliliklarning ikkilamchi nominatsiyalarida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud emas. Ushbu nominativ usulda mantiqiy asos bor, lekin u bevosita nominativ ma'nodan tashqarida bo'lib, so'zning asosiy ishlatilishida unga hamroh bo'ladigan "assotsiativ belgilar"ga asoslanadi, bu esa muhim semantik elementni tashkil etmaydi[14; B.176].

Shuningdek, ikkilamchi nominatsiya jarayonida leksik birliliklarning predmetli

tizimlashtirilishida etnonimlar va toponimlardan yasalgan rang ifodalovchi nomlar ilmiy tushunchalar, ozuqa mahsulotlari, materiallar, raqslar, chorva mollari va uy hayvonlari zotlari, shuningdek, tarixiy hujjatlar va voqealar nomlari bilan bir qatorga qo'yiladi[13;].

Hayvonlar nomlari (zoonimlar) – bu hayvonlarning tashqi ko'rinishi yoki xulqiga mos ravishda rang asosida qo'yilgan nomlar.

Qorabayir – qora tusli ot zoti nomi.

Oqbosh – boshi oq rangda bo'lgan hayvon (qo'y, ot, yoki echki).

Qizilishton (дяatel) – o'rmonda yashovchi qush turiga kiradi.

➤ **Mahsulot va brend nomlari:**

Oq oltin – paxta uchun ishlataladigan ramziy nom.

Moviy ekran – televizorni tasvirlash uchun ishlataladigan ramziy nom.

➤ **Rangga asoslangan mansab-unvon nomlari:**

Oqsoqol – hurmatli keksa kishi (oq rang poklik va hurmatni bildiradi).

Qizil nishon – sovet davri qahramonlariga berilgan ramziy mukofot.

Qora kuchlar – yomonlikni ifodalaydigan ramziy ibora.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, olamning lingvorangli manzarasi lisoniy manzaraning ajralmas bir qismidir. Ranglarning ifodasi va nominatsiyasi odamlarning dunyoqarashi va psixologik holatini yorituvchi kuchli vositadir. Ranglarning tilshunoslikda tarixi va ma'nosi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'lib, ularning nominal ifodalalari atrof olamni idrok etish va tushunish usulini shakllantiradi. Ranglar nafaqat biror narsaning ko'rinishini ta'riflaydi, balki insonlarning milliy, hissiy va madaniy dunyoqarashini ifodalaydi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Bazarbaeva A.M. Ingliz, o'zbek va rus tillarida rang ifodalanishing kognitiv-semantik tuzilishi: filol. fanl. b. falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019 – 57 b.
2. Соссюр Ф. де, Курс общей лингвистики. В кн.: Соссюр Ф. де. Труды по языко-знанию. –М.: Прогресс, 1977, –С.274
3. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – Москва: Наука, 1986 –С.159
4. Nurmonov A. Lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyalari haqida mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – № 5. – Toshkent, 2013.– В.10-19.
5. Гердер И.Г. Идеи и философия истории человечества. – М.: Наука, 1977. – С. 233.
6. Базарбаева А.М. Когнитивные основы семантики английских и русских цветообозначений: Монография. – Ташкент: Узбекский государственный университет мировых языков. 2020 – 165 с.
7. Hojiyev, A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 250-bet.
8. Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden, 1964. – P.331.
9. Визаулина, В.В. Развитие номинативных полей, связанных с традициями США: автореф. ... дис. канд. филол. наук: 10.02.04 / Визаулина Виктория Вячеславовна – М., 2006. – 23 с.
10. Телия В. Н. Вторичная номинация и ее виды [Текст] / В. Н. Телия // Языковая номинация (Виды наименований). – М. : Наука, 1977. – С. 129-221
11. Пак С.М. Имя собственное в американском культурном пространстве. – Владивосток, 2004. – С.5.
12. Федорцова В.Н., Тархова А.Б. (2015). Структурные, семантические и мотивационные особенности цветообозначений на базе этнонимов и топонимов в английском языке. Международный институт рынка. –С.173-177.
13. Мурзаев Э.М. Топонимика и география. – М., 1995. – С.3
14. Тархова, А.Б. Способы формальной классификации оттопонимических и отэтнонимических номинативных единиц в английском языке / А.Б.Тархова // Известия РГПУ им. А.И.Герцена. – 2008. – №73-1. – С.452 – 458.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).